

Ya'qub Yusufning oldida



19:00 / 04.07.2019 2420

Ular (akalar) Yusufning ko'ylagi bilan Kan'onga kelganlarida, Ya'qub Yusufning hidini sezdi va: **“Albatta, men Yusufning hidini sezmoqdaman”**, dedi. **“Ular: «Allohga qasamki, sen eski adashuvingdasan”, dedilar.**

Lekin Ya'qub rost gapirgan edi. **“Xushxabarchi kelgan chog'ida u (ko'ylak) ni uning yuziga tashlaganida, yana ko'radigan bo'ldi. U: “Sizlarga men, “Allohdan sizlar bilmaydigan narsani bilaman”, demaganmidim?!” dedi. Ular: “Ey otamiz, gunohlarimiz uchun istig'for ayt. Albatta, biz xatokorlardan bo'lgan ekanmiz”, dedilar. U: “Sizlar uchun Robbimga istig'for aytaman. Albatta, Uning O'zi mag'firat qilguvchi va rahmli Zotdir”, dedi”.**

Ya'qub Misrga yetib kelganida, uni Yusuf kutib oldi. Ularning xursandligi va shodligi haqida so'ramay qo'ya qoling. Bu kun Misrda unutilmas va muborak kun edi.

Yusuf ota-onasini taxtga ko'tardi. Barchalari Yusufga sajda qilib yiqildilar.

Yusuf: **“Ey otajon, bu avval ko'rgan tushimning ta'biridir, Robbim uni haqqa aylantirdi. Men o'n bitta yulduzni ham quyosh va oyni ko'rdim, ularning menga sajda qilayotganlarini ko'rdim”, dedi.**

Yusuf Allohga ko'p, go'zal hamd aytdi. Buning uchun Yusuf ulkan shukr qildi.
Ya'qub va uning ahli Misrda uzoq vaqt qoldi. Ya'qub va uning ayoli Misrda vafot
etdi.